

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-iyul oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

RAQAMLAR

4611,4 mlrd.so'm
Sanoat ishlab chiqarish
hajmi

112,5 %
sanoat ishlab chiqarish
indeksi

2952,5 mlrd.so'm
Iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmi

127,6 %
o'sish sur'ati

64,0 %
Iste'mol tovarlarining jami
sanoat ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi


32,7 %
sanoat ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4611,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 112,5 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 11,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 9,1 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 19,9 % ni tashkil qildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 0,7 % ga, kamayish kuzatildi.



2019 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



2018 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0049 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4377,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,9 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 42,6 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,9 %, oziq-ovqat mahsulotlarini Ishlab chiqarish 15,1 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 42,6 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 18,9 %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 15,1 %

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-iyul</i>	<i>2018 yil yanvar-iyul</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		280,1	93,4
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		72,1	49,0
Engil avtomobillar		27644	16961
Yuk avtomobillari – dona		4349	4329
Aroq – ming litr		503,0	828,0
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		14,2	10,7
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr		630,5	720,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		45989,1	43572,9
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-iyul</i>	<i>2018 yil yanvar-iyul</i>
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		881,9	1073,9
Milliy non (yopgan non) – tonna		451,3	71,4
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		10530,2	12915,6
Xo'jalik sovuni – tonna		4244,0	6038,0
Paxta tolasi –tonna		36323,4	44576,0
Paxta chigiti-tonna		57385,4	69103,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Aroq 325,0 ming litrga;
2. Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari 89,5 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Tozalangan o'simlik yog'i 2385,4 tonnaga;
5. Paxta tolasi 8252,6 tonnaga;
6. Paxta chigiti 11717,6 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 203,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 119,9 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 68,9 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 30,6 % ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 46,9 foiz, Urganch shahri 23,6 foiz, Xonqa 5,8 foiz, Shovot 5,4 foiz, Gurlan tumani 3,9 foizni va Bog'ot 3,0 foiz hamda eng past bo'lgan Xiva tumani 1,6 foiz, Yangibozor tumani 1,5 foiz hamda 1,5 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>2019 yil yanvar-iyul</i>	<i>2018 yil yanvar-iyul</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	3949,4	2644,9
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,2	0,2
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,2	0,2
Qayta ishlash faoliyati	4377,6	2968,8
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	698,3	547,8
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	137,8	108,2
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	875,1	719,9
Kiyim ishlab chiqarish	14,7	34,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	5,2	3,7
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	3,5	2,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	9,6	9,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,5	0,5
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	10,7	7,7
Asosiy farmasevtika	3,7	4,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	37,3	38,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	172,9	123,7
Metallurgiya sanoati	9,4	6,5
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	78,9	75,9
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,1
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	18,8	16,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	235,8	108,4


Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-iyul	2018 yil yanvar-iyul
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1965,6	1068,5
Mebel ishlab chiqarish	18,7	13,0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	69,4	70,6
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	11,6	8,6
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	203,7	99,1
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	29,8	26,7

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-iyul oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.




Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-iyul oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 38,8 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-iyul oylarida bu ko'rsatkich 48,4 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 8,2 foizdan 6,7 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 48,8 foizdan 39,7 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 3,8 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-iyul oylarida 4,1 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 2230,7 mlrd.so'mlik (1201,4 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 310,2 mlrd.so'mlik (252,8 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1832,9 mlrd.so'mlik (1510,5 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2504,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 110,6 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-iyul oylarida Xazorasp tumani 4960,4 ming so'mdan 2019 yil yanvar-iyul oylarida 8845,5 ming so'mga, Urganch shahri 5632,4 ming so'mdan 7658,5 ming so'mga, Xonqa tumani 1113,3 ming so'mdan 1465,8 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2952,5 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati 127,6 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 727,7 mlrd.so'mni va 2224,8 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 107,3 foiz va 136,0 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,0 foizni (2018 yil yanvar-iyul oylarida 74,8 foiz) tashkil qildi.


2019 yil yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1603,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 125,4 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-iyul oylarida Xazorasp tumani 4718,1 ming so'mdan 2019 yil yanvar-iyul oylarida 7149,4 ming so'mga, Urganch shahri 3326,0 ming so'mdan 3386,8 ming so'mga, Urganch tumani 522,6 ming so'mdan 553,3 ming so'mga, Gurlan tumani 604,1 ming so'mdan 688,2 ming so'mga o'sgani kuzatildi.